

OLIMPIYA G‘OYALARI VA QADRIYATLARI ASOSIDA OLIMPIZM MUAMMOLARINI TAHLIL QILISH

Umarov Uktam Aminovich

Shahrisabz pedagogika instituti Jismoniy madaniyat kafedrası katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada jismoniy madaniyat jamoalarida olimpizmni tashviqot-targ‘ibot qilish, mazmun va mohiyatini yetkazish hamda dasturi ishlab chiqishga katta e‘tibor qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *olimpizm, olimpiya xarakati, jismoniy madaniyat jamoasi, gumanizm, olimpiya ta‘limi, olimpiya kadriyatlari, xalollik.*

Respublikamiz ta‘lim tizimida o‘quv-tarbiyaviy jarayonlar sifatini oshirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. O‘zbekistonning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasida to‘rtinchi ustuvor yo‘nalish aynan ta‘lim sohasini rivojlantirishga qaratilgan [1].

Mamlakatimizda jamiyatning ijtimoiy ehtiyojlariga va hozirgi davrda rivojlanishining istiqbolli vazifalariga muvofiq, ta‘lim tizimi sohasida jismoniy tarbiya tizimini zamonaviylashtirish (modernizatsiya qilish) asosida umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida ta‘lim-tarbiya va sog‘lomlashtirish salohiyatini oshirish, “Jismoniy tarbiya” fanini o‘qitishning sifatini ta‘minlash uchun sharoit yaratish va fanni o‘qitish metodikasini takomillashtirish asosiy maqsad qilib qo‘yilgan.

Jamiyatimizda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug‘ullanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarda mardlik, vatanparvarlik, Vatanga sadoqat tuyg‘ularini shakllantirish, axoli orasida jismoniy tarbiya, ommaviy sport va olimpiya xarakatini yanada rivojlantirishga yo‘naltirilgan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Olimpiya harakati taraqqiyotini faylasuflar, pedagoglar, sotsiologlar, madaniyatshunoslar, psixologlar tomonidan o‘rganilib, “Olimpizm” tushunchasining mohiyati yanada chuqurlashdi, uning mohiyatini o‘rganishda olimpiya ta‘limi nazariyasi muhim ahamiyat kasb etmokda.

Tadqiqotning maqsadi: Olimpiya g‘oyalari va qadriyatlari asosida tarbiyalashda maxsus dasturlar ishlab chikish va olimpizm muammolarini tahlil qilish.

Tadqiqotning vazifalari: Olimpiya ta‘limini o‘rganishda Milliy olimpiya qo‘mitalari ular qoshida faoliyat ko‘rsatayotgan Milliy olimpiya akademiyalari, sportchilar, murabbiylar, jurnalistlar, olimlar va boshqalar uchun mashg‘ulotlar, seminarlar, anjumanlar, davra suhbatlari tashkil etish;

boshlang‘ich jismoniy madaniyat jamolarida o‘quvchilarni olimpiya g‘oyalari va qadriyatlari asosida tarbiyalash;

maxsus dasturlar ishlab chikish va olimpizm muammolarini chuqurroq tahlil qilish.

Tadqiqot natijalarini muhokamasi. Olimpizm nazariyasining samarali rivojlanishi uchun uning asosiy tushunchalari bilan tanishish va ularni o‘rganish muhim hisoblanadi.

Olimpizm boshlang'ich jismoniy madaniyat jamolarida sport va olimpiya o'yinlarining turli qirralarini, ularning ahamiyatini o'quvchilarga ommaviy ravishda targ'ib qilish, turli mamlakatlar va xalqlar madaniyatiga va xalqaro hamjamiyatga tatbiq etiladigan ijtimoiy-madaniy salohiyatni samarali talqin qilishda xizmat qiladi.

Olimpiya ta'limining tarkibi va mazmunini tahlil qilishda Per de Kuberten zamonaviy olimpizm tushunchasining xususiyatlariga, olimpiya ta'limining maqsad vazifalariga, tinchlik, do'stlik, o'zaro tushunish va birodarlikni tarbiyalashga asoslanadi [2, 4].

Olimpizmning ijtimoiy ahamiyati umuminsoniy qadriyatlar va ideallar bilan bog'liq. Uni o'quvchilarning ta'lim tarbiyasiga joriy etishda olimpiya ta'limining ahamiyati muxim hisoblanadi.

Olimpizm-bu turli davlat sportchilarini yagona ahil oilaga birlashtiradi. U sportchilarda botirlik, or-nomus, qadr-qimmat, madaniyat va ma'naviyatni tarbiyalaydi, xamda san'at, fan va texnika sohalarida sport faoliyatinnig sivilizatsiya yutuqlari bilan uyg'unlashgan tizimini anglatadi.

Sport harakatining ma'naviy asosi bo'lgan olimpizmning negizida gumanistik g'oyalar yotadi, uning mazmun-mohiyati kishilarning yahshi niyatlarga, tinchlikka, hamkorlikka intilishi, insonga, shahsga, jamiyatga hizmat qilishdan iborat.

Olimpiya sporti gumanizmni, halol o'yinni (fair play), olimpizm falsafasini shakllantiruvchi tinchliksevar an'analarni oldinga suradi. Uni o'quvchi yoshlarning ta'lim - tarbiya tizimiga joriy etishda olimpiya ta'limining ahamiyati yuksak e'tirofga molikdir.

Olimpiya ta'limi, olimpiya harakatining kelib chiqishi, uning shaxs va jamiyatning turli xil madaniy va ma'rifiy ehtiyojlarini qondirishga yunaltirilgan ta'sirini anglash jarayoni sifatida namoyon bo'ldi.

Olimpiya ta'limining erkin va keng talqin qilinishi boshqa faoliyatlardan farq qilmaydi, biroq ayrim tadqiqotchilar, olimlar va pedagoglar orasida olimpiya ta'limini tushunish va talqin qilishning turli yondashuvlari mavjud.

Pedagoglar faoliyatining asosiy vazifalari o'quvchi-yoshlarni olimpizm qadriyatlariga jalb qilish bilan bog'liq olimpizm haqida bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

Olimpiya ta'limi – o'quvchilarni olimpiya harakati, olimpiya o'yinlari, shuningdek, qadimgi Gresiyada paydo bo'lgan olimpizmning g'oyalari va qadriyatlari haqida ma'lumotga ega bo'lishlari va Per de Kubertening g'oyalari va falsafiy qarashlaridagi zamonaviy talqinlarni izlashga qaratiladi.

Olimpiya ta'limi - bu ijtimoiy va shaxsiy axloqni rivojlantirishga hissa qo'shadigan vositadir. Shaxsiy axloq doirasida biz halollik, bag'rikenglik, mehr-shafqat, kamtarlik va ijtimoiy - adolat, haqiqat, sadoqat haqida gapirishimiz mumkin deb ta'kidlagan [2, 3].

Olimpizmni umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilar orasida tashviqot va targ'ibot qilishda boshlang'ich jismoniy madaniyat jamoasida ishlab chiqilgan dastur, jamoa kegashi, uning a'zolari, jismoniy tarbiya faollari ota-onalar, xomiylar uchun muxim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda boshlang'ich jismoniy madaniyat jamoalarida olimpiya ta'limining barcha hususiyatlarini o'z ichiga olgan tushunchalarni o'rganish, qo'shimchalar

qilish, va ilmiy izlanishlar olib borish va olimpiya ta'limining nazariy jihatlarini samarali o'rgatish uchun quyidagilarni tavsiya etamiz:

- o'quvchi-yoshlarni sportga bo'lgan qiziqishi, sportdagi natija, musobaqalarda g'alabaga intilish, jismoniy tarbiya va sport faoliyatiga jalb qilish;
- olimpiya ta'limi jarayonida ma'naviy va ma'rifiy tarbiya masalalariga e'tibor qaratish, yuksak ma'naviy qadriyatlarni shakllantirish, sport faoliyati bilan shug'ullanishi uchun ko'rsatmalar berish va birinchi navbatda o'z ustidan g'alaba qozonishga o'rgatish;
- olimpiya ta'lim-tarbiyasida nafaqat tarixiy sanalar, faktlar, olimpiya chempionlarini bilib olish, balki yoshlarni sportga faol jalb qilish, ularni o'z rekordlarini o'rnatishga bo'lgan intilishni rivojlantirish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF60-son Farmoni.
2. Kuberten, Per de. Olimpiyskie memuary [Tekst] / Per de Kuberten – Kiev: Olimpiyskaya literatura, 1997. – 179, 1 s.
3. Hamraqulov A.Q., Yunusov T.T. Olimpiya bilimlari asoslari. O'quv qo'llanma, T., “Sharq” nashr., 2002.
4. Boiboboev B. Organizing Olympic Education system in Uzbekistan. Eastern European Scientific Journal. Ausgabe 6-2017 Part I.